

## SO‘ROVNOMALAR SHAXS TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT OLIISH MANBAI SIFATIDA

**Yo‘ldoshev Javlon Ablanazar o‘g‘li**

O‘zMU psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Shaxs so‘rovnomalari, Shaxs psixologiyasi, shaxs xususiyatlari, xulq-atvor, xarakter, temperament tushunchalari ko‘rsatilgan. Shaxs so‘rovnomalariga olimlarning yondashuvi va shaxs xususiyatlarini bilish, tushunish, hamda shaxs so‘rovnomalarini amaliyotga tadbiiq etish. asosiy vazifa qilib olingan.

**Kalit so‘zlar:** Shaxs, shaxs so‘rovnomalari, xarakter, temperament, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, ma’suliyat, shaxs so‘rovnomalarining shakllanish mexanizmlari.

Ma’lumki, psixodiagnostika fani insonning individual-psixologik xususiyatlarini baholash va o‘lchash vositalari, prinsiplari hamda usullarini ishlab chiquvchi psixologiyaning sohasi sanaladi. Hozirga qadar fanda ko‘plab psixologik testlar, metodikalar, anketalar hamda shaxs so‘rovnomalari yaratilgan bo‘lib, ular o‘ziga xos tadqiq etish usullari sanaladi. Ular ichida shaxsdan ma’lumot olishning so‘rovnomalari alohida ahamiyat kasb etib, bugungi kunda ularsiz amalga oshirilayotgan dunyo miqyosidagi psixologik tadqiqotlarni tasavvur etish mushkul hisoblanadi.

O.P.Yeleseevning ta’kidicha, shaxs so‘rovnomalari - bu shaxsning ma’lum bir xususiyatlarini, xulq-atvorning o‘ziga xosligini tekshirish uchun mo‘ljallangan psixodiagnostik usullar guruhidir. So‘rovnomalarda savollar ro‘yxati bo‘lib, ularga javob berish tekshiriluvchi tomonidan amalga oshiriladi<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> Елисеев О.П. Практикум по психологии личности / О.П. Елисеев. - СПб: Питер, 2005 – С.189.

Bundan tashqari, shaxs so‘rovnomalari – shaxs mazmunini tavsiflovchi ma’lumotlarning keng majmui sanalib, u shaxsning jismoniy, ruhiy holatlaridan tortib, axloqiy va ijtimoiy sifatлари haqida ham ma’lumot olish imkoniyati mavjud. Biroq, hanuzgacha shaxs so‘rovnomalari dan tadqiqotlarda foydalanishning psixodiagnostik mezonlari, ularni mahalliy muhitga moslashtirishning o‘ziga xosliklari, pilotaj tadqiqotlar o‘tkazish, ayrim shaxs so‘rovnomalari ni mahalliy muhitga moslashtirish kabi masalalar yangi tadqiqotlarga zaruriyat sezmoqda. Tadqiqotchi O.N.Istratovaning aytishicha, shaxs so‘rovnomalari boshqa tadqiqot usullaridan farqli ravishda, natijalarni taqqoslashda yuqori standartlashtirish darajasiga ega usullardan biri sanaladi. Qoidaga ko‘ra, shaxs so‘rovnomalari qat’iy psixometrik talablar asosida ishlab chiqiladi, shuningdek, tadqiqotdan olingan natijalarni sharhlash ham standartlashtirish qioidalaridan o‘tkaziladi<sup>6</sup>.

M.K.Akimovaning aytishicha, shaxs so‘rovnomalari da savollar shunday tuziladiki, ularga javob berish orqali respondentning sog‘ligi, uning o‘ziga xos xatti-harakatlari, xulq-atvor shakli, aqliy hamda ijtimoiy imkoniyatlari aniqlanadi hamda ushbu xususiyatlar so‘rovnoma shkalalari orqali batafsil baholanadi<sup>7</sup>.

Ilmiy asosga ko‘ra, shaxs so‘rovnomalari dastlab tabiatshunoslikdan olingan psixodiagnostik metodlar sanaladi. Xususan, ilk bor anketalar Charlz Darwin tomonidan ishlatilgan. So‘rovnoma usulining nazariy asoslari bu – introspeksiya tushunchasining mohiyati bilan bog‘liq sanaladi. Ilk bor, psixologik anketalar F.Galton tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, insonning shaxsiy fazilatlarini o‘rganish uchun emas, balki kishilarning bilim doirasini baholash uchun ishlatilgan. Shu bilan birga, mazkur anketalar orqali teshiriluvchilar o‘zlarining idrok qilish xususiyatlarini, aqliy tasavvur imkoniyatlarini namoyon qila olganlar.

Birinchi shaxs so‘rovnomasi sifatida 1919 yilda ishlab chiqilgan Robert Vudvordsning savolnomasi tan olinadi. Mazkur savolnoma nevrozga moyil bo‘lgan

<sup>6</sup>Истратова О.Н. Психодиагностика. Коллекция лучших тестов / О.Н. Истратова, Т.В. Эксакусто. - 8-е изд., испр. и доп.- Ростов-на-Дону: Феникс, 2011 – С.78.

<sup>7</sup>Психологическая диагностика / Под ред.М.К.Акимовой, К.М.Гуревича. – СПб: Питер, 2006 – С.45.

insonlarni tekshirishga qaratilgan bo‘lib, ular asosan harbiy xizmatga saralashda ishlatilgan. Keyinchalik, mazkur shaxs so‘rovnomalariga bo‘lgan qiziqish mutaxassislar orasida ancha ommalashgan.

Shaxs so‘rovnomalari mazmun jihatidan shaxs xususiyatlariga oid so‘rovnomalar, tipologik so‘rovnomalar, motivatsiya so‘rovnomalari, qiziqish bo‘yicha so‘rovnomalar, qadriyatlarga oid so‘rovnomalar hamda munosabat so‘rovnomalari kabi turlarga bo‘linadi.

A.F.Anufrievning xulosalariga ko‘ra, shaxs so‘rovnomalari inson va uning psixologik xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lmagan ma‘lumotlarni olish uchun ishlatiladi. Ular qat‘iy belgilangan tartib, savollarning mazmuni va shakli, javoblar shaklining aniq ko‘rsatilishi kabilar bilan tuziladi. Javob beruvchilar yakka o‘zi yoki eksperiment ishtirokida javob berishlari mumkin. Demak, so‘rovnomalar birinchi navbatda, berilgan savollarning mazmuni va tuzilishi bo‘yicha tasniflanadi. Psixodiagnostika fani tamoyillariga muvofiq, shaxs so‘rovnomalarining barcha variantlar ko‘pincha, ochiq, yopiq, yarim yopiq shaklda tuziladi. Bunday mezon savolnomadagi ma‘lumotlarning haqiqiylikini va to‘liqligini yanada oshiradi. Psixodiagnostik maqsadda o‘tkazilgan so‘rovnomalar orasida inson hayoti tarixi to‘g‘risida ma‘lumot olishga mo‘ljallangan biografik anketalar ham keng tarqalgan. Ko‘pincha, bunday saollar yosh, sog‘lik, oilaviy holat, ta‘lim darajasi, maxsus ko‘nikmalar, martaba va boshqa xususiyatlarni o‘rganishga qaratilgan. Ular test natijalarini ishonchli tarzda izohlash uchun, zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plashga yordam beradi. L.F. Burlachukga ko‘ra, ko‘plab standartlashtirilgan shaxs so‘rovnomalari va psixodiagnostik testlar talqin etilishiga ko‘ra, ob‘ektiv, sub‘ektiv va proektiv yondashuvlarni o‘z ichiga oladi<sup>8</sup>. Shaxs so‘rovnomalari psixodiagnostikadagi sub‘ektiv yondashuvga ko‘proq yo‘naltirilgan sanaladi. Sub‘ektiv yondashuvga ko‘ra, tashxis tekshiriluvchilarning o‘zlari to‘g‘risida bergan ma‘lumotlariga asoslanadi.

<sup>8</sup> Burlachuk Л.Ф. Психодиагностика личности / Л.Ф.Бурлачук. Киев, 2003. – С.63.

Aytish mumkinki, shaxs so‘rovnomalari bu-subyektiv yondashuvga asoslangan, standartlashtirilgan hamda o‘z-o‘zini baholashga qaratilgan psixodiagnostik vositalardir. Shaxs so‘rovnomalari boshqa sinov usullaridan farqli o‘laroq, juda ko‘p afzalliklari tufayli, eng keng tarqalgan psixodiagnostik vositalaridan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Елисеев О.П. Практикум по психологии личности / О.П. Елисеев. - СПб: Питер, 2005 – С.189.
2. Истратова О.Н. Психодиагностика. Коллекция лучших тестов / О.Н. Истратова, Т.В. Эксакусто. - 8-е изд., испр. и доп.- Ростов-на-Дону: Феникс, 2011 – С.78.
3. Психологическая диагностика / Под ред.М.К.Акимовой, К.М.Гуревича. – СПб: Питер, 2006 – С.45.
4. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика личности / Л.Ф.Бурлачук. Киев, 2003. – С.63

